

TIL VA JAMIYAT O‘ZARO MUNOSABATI

Ashurova Sevinch Avaz qizi

Osiyo xalqaro universiteti 3-FT(O’)-24 guruh talabasi

Ustozi Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası Assistenti

Annotatsiya: *Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat bilan birgalikda hamnafas. Biz bilamizki, til nafaqat insonlar o‘rtasidagi muloqot qilish vositasi balki, bu til insoniyat va uning kelajagi dunyo qarashi hamdir. Jamiyat esa, bir-biriga bog‘langan odamlar va ularning qadriyatlari, urf-odatları, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasidir.*

Eng avvalo til haqida gapirib o‘tsam. Darhaqiqat, til- insonning va jamiyatning ma’naviy boyliklaridan biridir. Til bor ekan demak, jamiyat o‘z o‘rniga va mavqeyiga ega bo‘ladi desak mubolag’a bo‘lmaydi. “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdur” deya e’tirof etadi Abdulla Avloniy.

Til jamiyatning asosiy tarkibiy qismidir. Til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar chuqur va murakkab. Til jamiyatning barcha sohalarida o‘z ifodasini topadi va shuningdek, jamiyat tilni shakllantiradi. Ularni o‘rgatish va o‘rganish, tildagi o‘zgarishlarni va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar tilni shakllantiradi va tilning jamiyatdagi o‘rni jamiyatning rivojlanishi va o‘zgarishlariga bevosita ta’sir etadi.

Ijtimoiy tilshunoslik o‘tgan asming 60-yillaridan jahon tilshunosligining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lsa, 80- yillarga kelib ilg‘or sohalardan biri sifatida fan sahnasiga dadil chiqdi. Zamonaviy sotsiolingvistika til(lar)ning ijtimoiy hayotda tutgan o‘mi, roli, vazifasi va vaziyatining darajasini barometr yanglig‘ ko‘rsatuvchi fan sohasi tarzida shiddat bilan taraqqiy etmoqda. Til va jamiyatning o‘zaro uzviy munosabatlarini, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganuvchi soha sotsiolingvistika. Sotsiolingvistika (lot. societas - jamiyat, lingvistika) tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalarini, til taraqqiyotidagi ekstralingvtstik omillarni, til siyosatini, lisoniy muhitni tilning jamiyat hayotidagi o‘mi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganuvchi soha. Ilmiy manbalarda va tilshunoslikka oid terminologik lug‘atlarda sotsiolingvistika lingvosotsiologiya va lingvistik sotsiologiya, til sotsiologiyasi, sotsiologik lingvistika, sotsial tilshunoslik, lingvistik sotsiologiya, lingvosotsiologiya kabi nomlanib kelgan. O‘zbek tilshunosligida esa bu termining ekvivalenti sifatida ijtimoiy tilshunoslik atamasi ham qo‘llanilib keladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning predmetini qisqacha “inson va jamiyat”, deb ayta olamiz.

Fransuz tilshunoslarining fkriga ko‘ra, diskurs tahlili, til me’yori, variantlilik, dinglossiya kai muammolar sotsiolingvistikaning obyekti hisoblandi.

Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni o‘rganadi:

1. Jamiyat va til o‘zaro bog‘liq va mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.
2. Jamiyat taraqqiy eta brogan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi

3. Adabiy tilning, shevalarning lug‘at boyligi kengayadi, ortib boradi.
4. Yashash muhiti yaqin, turmush tarsi o‘xshash hamda o‘zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir- biriga ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, sotsiolingvistikani ba’zi asosiy masalalari mavjud:

1. Til va jamiyat: Tilning jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar (masalan, yosh, jins, etnik guruhlar) orasida qanday farq qilishi.

2. Dialektlar: Jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasida tilning hududiy, ijtimoiy yokikasiy farqlari.

3. Tilni tanlash va ijtimoiy holatlar: Qaysi til yoki leksik vosita qaysi ijtimoiy holatlarda ishlatilishi va nima uchun bu tanlov amalga oshiriladi.

4. Bilingvizm va poliglotizm: Bir nechta tilni bilish va ularning ijtimoiy konteksdagi o‘rni.

5. Sotsiolingvistik o‘zgarishlar: Yangi so‘zlar, ifodalar yoki tilning stilistik o‘zgarishlari ijtimoiy ehtiyojlar yoki texnologik taraqqiyotiga qarab qanday paydo bo‘ladi va tarqaladi.

Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning rasman AQSHda shakllangani ko‘p aytilsa ham uning markaziy masalasi bo‘lgan til va jamiyatning o‘zaro ta’siri, tilning jamiyatda tutgan o‘rni, milliy tillar va davlat tili, til siyosatiga doir qarashlar hind, yapon, ingliz, nemis, va chex tilshunosliklarida sotsiolingvistika nomi ostida bo‘lmasada, o‘rganilgan edi. Amerika tilshunosi U. Labov faol sotsiolingvistik tadqiqotlar ko‘p tilli Hindistonda hindiyni yagona davlat tiliga aylantirish g‘oyasi bilan bog‘liq vaqtlardayoq boshlanganini qayd etadi.

Lingvistik adabiyotlarda til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, iltimoiy omillarning tilga ta’siri, ikkitillik va ko‘ptillilik, til siyosati, millat va milliy til muammolari sotsiolingvistikaning muhim vazifalari sanaladi. Til va jamiyat ta’sirlashuvi haqida so‘z borar ekan, tilning jamiyatga qanday ta’sir etishini ham tushintirish kerak. Olimlar takidlaganidek, tilning jamiyatga ta’siri jamiyatning tilga ta’siriga nisbatan kam o‘rganilgan, hatto bunday ta’sirlashuvga shubha bilan qarash ham bor. Bizningcha, tafakkur quroli bo‘lgan vositaning jamiyatga ta’sir ko‘rsatmasligining o‘zi shubhali, chunki til jamiyatni muntazam harakatlantirib turadi va bu tarz ta’sirlashuvning eng ibtidoiy aksi uning axborotni shakllantirish va uzatish vazifasida ko‘rinadi

Til odamlarga jamiyat shaklida birlashib, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishda, tabiat kuchlari ustidan hukmron o‘lishlarida, qisqasi, taraqqiyotning hozirgi darajasiga ko‘tarilishigacha doim yordam beradi. Til kishilik jamiyati mahsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi, negaki, tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o‘rnini, jamiyat taraqqiyoti yo‘llarini bilish, o‘rganish mumkin emas.

Darhaqiqat, “Sof” lingvistik lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilar bilan o‘zaro munosabatini, vaqt va zamonda o‘zgarishini va

5-Mart, 2025-yil

hokazolarni tahlil qilish bilan shug‘ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarniularning Yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko‘raqanday qo‘llashlarini, ya’ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Masalan, “sof”lingvistikada jag‘ini ezmoq iborasi ot va fe‘ldan tarkib topgan frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so‘zlashuv nutqida qo‘llanilgani qiziqtiradi.

Xullas, sotsiolingvistikaning tilga nisbatan o‘ziga xos yondashuvini va uning “sof” lingvistikadan farqini tushunish uchun sotsiolingvistikaning manbalarini ko‘rib chiqish, uning tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari orasidagi mavqeyini belgilash, uning obyekti va asosiy tushunchalarini, u shug‘ullanadigan masalalarni aniqlab olish lozim bo‘ladi. Shuni aytib o‘tish lozimki, til va jamiyat o‘rtasida doimiy ta’sirlashuv kechadi. Bunday ta’sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansu jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to‘lib-to‘liqib borishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR:

1. Sotsiolingvistika O‘quv – uslubiy qo‘llanma. D.Elova, G.Safarova
2. Xorijiy sotsiolingvistika. Hmidulla Dadaboyev, SHoira Usmanova-2014.
3. Sotsiolingvistika va til o‘qitish integratsiyasi. Roziqova Maysara Rustamovna-maqola
4. Tilshunoslikka kirish. Xolmanova Z.T.-2007.
5. Yorqinjon Odilov, O‘zRFA O‘zek tili, adaiyoti va folklori institute o‘lim mudiri, filologiya fanlari doktori
1. Oxunjonovna, B. D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ KASB-KOR TURLARI (Temirchilik kasb-hunari doirasida).
2. Oxunjonovna, B. D. (2024). TEMIRCHILIK KASB-HUNARIGA OID LEKSEMALARINING XALQ MAQOLLARIDA NAMOYON BO‘LISHI.
3. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG‘ARIYNING «DEVONU LUG‘OTIT TURK» ASARI–ILMIY AHAMIYATLI ME‘ROS.
4. Oxunjonovna, B. D. (2023). O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI.
5. Oxunjonovna, B. D. (2024). RESPUBLIKAMIZDA DAVLAT TILI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 44-49.
6. Oxunjonovna, B. D. (2024). ISH YURITISHDA TIL MADANIYATI VA SO ‘ZLASHUV ODOBINING AHAMIYATI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 8-1
7. Oxunjonovna, B. D. (2024). RASMIY USLUBDA O ‘ZBEK TILI: HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 38-43.

5-Mart, 2025-yil

8. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINING ISH YURITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO ‘NALISHLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 52-57.
9. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI O ‘RGATISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 65-71.
10. Oxunjonovna, B. D. (2025). ELEKTRON TIZIMLARDA DAVLAT TILINING QO ‘LLANILISHI VA UNING RIVOJI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 17-23.
11. Oxunjonovna, B. D. (2025). MAMLUKATNING TURLI HUDUDLARIDA ISH YURITISHDA DAVLAT TILINING O ‘ZIGA XOS QO ‘LLANISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 10-16.
12. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI JORIY ETISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 3-9.
13. Oxunjonovna, B. D. (2025). RASMIY HUIJATLARNI TUZISHDA DAVLAT TILIDAGI ANIQ TALABLAR VA STANDARTLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 45-51.
14. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN SIYOSATNING ISH YURITISH TIZIMIDAGI O ‘RNI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 24-30.
15. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI ISH YURITISHDA QO ‘LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN VA ME‘YORIY HUIJATLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 31-37.
16. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA RASMIY USLUBNING O ‘ZIGA XOSLIGI VA UNING TO ‘G ‘RI QO ‘LLANILISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 58-64.
17. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH YURITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA DAVLAT TILINING INTEGRATSIYASI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 38-44.
18. Oxunjonovna, B. D. (2025). BOYOQCHILIK HAMDA KULOLCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 98-101.
19. Oxunjonovna, B. D. (2024). O ‘ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEXNOLOGIK IMKONIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 26-31.
20. Bobojonova, D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ MUSIQACHILIK KASB-HUNAR MAQOLLARI TAHLILI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 553-564.